

QADIMGI TURKIY LUG'ATLARDA QO'LLANILGAN MEVA NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Allanova Muhayyo
TerDU talabasi
Xidirova Iroda
Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7932816>

Annotatsiya: Ushbu maqolada meva nomlarining lug'atlarda qanday nomlanganligi, ularning bir-biriga o'xshashligi va o'zaro farqli jihatlari leksik-semantik va qiyosiy tahlil usullari bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: lug'at, meva, mevachilik leksikasi, "Devonu lug'atit turk", "At-tuhfatuz zakiiyyatu fil-lug'atit turkiya", lingvistik tahlil, qiyosiy-chog'ishtiruv tahlili.

O'zbek mevachiligiga tegishli so'zlar xalq tili lug'at boyligining ajralmas qismi sifatida tahlil qilinishi mevachilik leksikasining vujudga kelishi insoniyat o'tmishi, mehnat jarayonini o'zlashtirish tarixi bilan bog'liq ekanligini isbotlab berish, xususan, muayyan meva va uning turlari, nomi lug'atlarda berilgan ta'riflar insonning ongida shakllangan meva tushunchasiga mos kelish yoki kelmasligi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy tillarda mevachilikni ifodalovchi leksemalar, ularning tavsifiga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar, monografiyalar va maqolalar yozilgan hamda bu ishlar haligacha davom etib kelmoqda.

Bu tadqiqot ishining asosiy tadqiq obyekti sifatida XI–XIV asarlarda yozilgan qadimgi lug'atlar "Devonu lug'otit turk", (keyingi o'rinlarda MK) "At-tuhfatuz zakiiyyatu fil-lug'atit turkiya" (keyingi o'rinlarda At-tuhfat) tarkibidagi meva nomlarining lingvistik tahlili amalga oshirildi. Bu gaplarning boshqalardan ajralib turadigan asosiy xususiyatlari lug'at tarkibidagi so'zlar leksikasi, morfologiyasi va fonetikasi bir-biriga qiyoslanib lug'at darajasiga yetkazilgan.

Nigina Xojiyeva o'zining "Mevachilik leksikasining maxsus lug'atlarda ifodalanishi" nomli maqolasida mevachilikning rus, ingliz, Ozarbayjon, uyg'ur, Usmonli turk, tatar va boshqa shu kabi tillarda nomlanishini fonetik, leksik, semantik va grammatik tuzilishini tahlil qilib chiqadi. Yuqorida keltirilgan turli til lug'atlarda meva nomlar miqdori anchagina. "Devonu lug'otit turk"da keltirilgan meva nomlari soni 1-jidda 10 ta, 3-jildda esa 3 tadan iborat bo'lsa, "At-tuhfatuz zakiiyyatu fil lug'atit turkiya"da 13 tani tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy obyekti hisoblangan yuqorida keltirilgan lug'atlar tarkibidagi so'zliklar tahlil qilinarkan ekan, bir lug'at tarkibida qo'llangan so'zliklar, ikkinchi bir lug'atda umuman boshqa ma'nolarda duch keladi.

"MK"da эрук – o'rikning umumiy nomi (99), сариқ эрук – o'rik (99), "At-tuhfat"da эрук – o'rik (177). "MK"da тулўг эрук – shaftoli (99), "At-tuhfat"da esa когам – коган – shaftoli (219), шафтоли – shaftoli (51), сариқэрук – shaftoli (214). "MK"da тарқа – талқа – (giva)uzum (402), мэшич узум – bir xil qora uzum (341), "At-tuhfat"da жузум – uzum (87). "MK"da а:лмила – olma (156), "At-tuhfat"da а:лма – olma (31), алма – olma (168). "MK"da қара эрук – olxo'ri (99), амшу – bir xil qora olxo'ri (138), "At-tuhfat"da қора эрук — olxo'ri (16).

Lug'atlarda lingvistik tahlilni davom ettirarkan ekanmiz bitta lug'atda bir meva bir necha xil nom bilan atalgan. Misol uchun: "At-tuhfat"da когам – коган – shaftoli (219), шафтоли – shaftoli (51), сариқэрук – shaftoli (214). Biz ushbu lug'atda fonetik-fonologik jihatdan farq qiluvchi so'zlarni ham aniqladik. Fonetik hodisa bu ya'ni tovush jihatdan farqlanishi deyiladi. Ushbu so'zlar qatoriga "MK"da тарқа – талқа – (giva)uzum (402), "At-tuhfat"da когам – коган –

shaftoli (219), “At-tuhfat”da а:лма – olma (31), алма – olma (168). Yana shunday sôzlar borki ikki lug’atda ham yozilishi bir xil ammo ma’nosi ikki xil bo’ladi. Misol uchun: “MK”da эрук – o’rikning umumiy nomi(99), “At-tuhfat”da эрук – o’rik (177). Ba’zi so’zlar borki ikki lug’atda ham yozilishi bir xil ma’nosi ham bir xil. Masalan: “MK”da қара эрук – olxo’ri (99), “At-tuhfat”da қора эрук — olxo’ri (16). Lug’atlardagi so’zliklar ham so’z shaklida ham so’z birikma shaklida berilgan bo’lib ushbu sôzlar qatoriga “MK”da сарик эрук –o’rik (99), “MK”da тулўг эрук – shaftoli (99), “At-tuhfat”da қора эрук — olxo’ri (16). , “At-tuhfat”da а:лма – olma (31),“At-tuhfat”da эрук – o’rik (177).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davrlar o’tishi, avlodlar almashinuvi natijasida lug’atlar tarkibidagi meva nomlarida ham ma’lum bir darajada leksik, semantik, fonetik va grammatik o’zgarishlar yuz beradi. Natijada eski sôzlar iste’moldan chiqib ketadi uning o’rniga yangilari keladi. Ammo o’sha eski sôzlar yangilari uchun tayanch,poydevor vazifasini o’taydi beradi.

References:

1. Mahmud Koshg’ariy. Turkiy so’zlar devoni (Devonu lug’otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatu fillug’atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Nigina Xojiyeva. Mevachilik leksikasining maxsus lug’atlarda ifodalanishi” ilmiy maqolasi (SYNERGY: JOURNAL OF ETHICS AND GOVERNANCE Volume: 01 Issue: 06 | 2021ISSN: 2181-2616 218